

## MILLIY O'Z O'ZINI ANGLASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARINI O'RGANISH

G.Amirova - mustaqil izlanuvchi  
Samarqand qishloq xo'jalik instituti

**Tayanch so'zlar:** milliy o'z-o'zini anglash, milliy g'oya, yoshlar, ustanovka, jamiyat, millat, inson.

**Ключевые слова:** национальное самосознание, духовно-идейный, молодёжь, установка, человек, субъект.

**Key words:** nationalself-consciousness, spiritual-ideological, , education, nation, youth, social, establishment, person, subject.

Mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekiston Respublikasi yildan-yilga rivojlanib bormoqda. O'tgan yillar mobaynida iqtisod, siyosat, manaviyat bilan bog'liq sohalarida ko'pgina yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu yutuqlar zahirida jamiyatimizda yashayotgan barcha millatlar hamkorlik, birdamlik, totuvlik bilan qilgan va qilayotgan mehnatlari yotibdi. Milliy manfaatlar, burch va milliy o'z-o'zini anglash asosida mustaqil O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlash uchun qilinayotgan harakatlar jamiyatimiz rivojlanishini amalga oshirish uchun katta ahamiyatga egadir. Bu haqda mamlakatimiz Birinshi Prezidenti I.A.Karimov: "O'zbek xalqi ruhining tiklanishi, millat manaviy- axloqiy idealini shakllantirishi, chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'langan hodisadir. O'zbekistonda yashayotgan har bir millat o'ziga xoslikni yo'qotmagan holda umumiy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo'lmoqdalar" - deb aytadi [1]. Yoki "O'zlikni anglash degani-bu o'z tariximizni, ming-ming yillik an'analarimizni bilish degani." "Mustaqillik biz uchun avvalo o'zligimizni anglash, insoniy qadrimizni, urf-odat va qadriyatlarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimiz, aziz-avlodi va allomalarimizning tabarruk nomlari va merosini, g'urur va iftixorimizni tiklash, yosh avlodimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kabi beqiyos imkoniyatlar ochib berganini alohida ta'kidlash zarur" [2].

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy hayotida ta'limning o'rni va ahamiyati uning huquqiy-demokratik davlat qurishdek ulkan vazifa bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangan bir davrda mustaqil fikrlab, faoliyat ko'rsata oladigan, qiyin vaziyatlarda ma'suliyatni o'z zimmasiga ola biladigan, umuminsoniy qadriyatlarni asrashda faol ishtirok eta oladigan, mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga iqtisodiy hamda ma'naviy jihatdan tenglik asosida bo'y ko'rsatishi uchun tolmay xizmat qiladigan yosh avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish mustaqil Respublikamiz ta'lim tizimining bosh maqsadidir.

Biz tanlagan milliy o'z-o'zini anglash tuyg'usi ijtimoiy psixologiyaning muhim kategoriyasi sifatida har bir millatga ta'luqli. Uning ma'naviy kamoloti bilan uyg'unlashgan ijtimoiy psixologik hodisadir. Bu kategoriyaning millat, jamiyat hayotidagi o'rni va roli nihoyatda katta.

Har qanday millatni taraqqiyoti rivoji,qudrati shu millatni tashkil etuvchi insonlarni ayniqsa yoshlarni milliy o'z - o'zini anglash faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Milliy o'z - o'zini anglash tuyg'usini shakllantirish juda katta ijtimoiy kuch bo'lgan va jamiyatning muhim ijtimoiy qatlamini tashkil etuvchi yoshlarni boshqarish, tarbiyalash, mehnatga chorlash uchun keng shart - sharoitlar yaratadi. Yoshlar avval etnik mansubligini anglab o'z millatining tarixi, madaniyati manfaatlarini anglaydilar. Bu esa millat istiqbolini anglash va milliy o'z-o'zini anglash tuyg'usini shakllanishiga olib keladi. Milliy o'z-o'zini anglash milliy ong rivojlanishi darajasi bilan belgilanadi. Milliy o'z-o'zini anglash tuyg'usini shakllanishi mexanizmlarini ochib berilishi, ilmiy asosda tushuntirishi milliy ma'naviyat, milliy munosabatlar madaniyatini shakllanishi, mustahkamlanishi va rivojlanishini kuzatishda, boshqarishda katta ahamiyat kasb etadi.

Milliy o'z-o'zini anglash muayyan millatga mansub bo'lgan kishilarning aniq narsalar, hodisalar, jarayonlarga milliy ma'naviyat, ruhiyat, e'tiqod, an'ana-mezonlari va me'yorlaridan kelib chiqib belgilangan munosabatdir. Milliy o'z-o'zini anglash o'z mohiyati jihatidan murakkab bo'lib, turli ma'naviy, ruhiy-emosional jihatlarni o'z ichiga oladi.

Millat yoshlarini milliy o'z-o'zini anglashi orqali ijtimoiy ustanovkalar shakllanadi va milliy manfaatlarini anglash orqali ijoiy hatti - harakatga undaydi.

Milliy o'z-o'zini anglash-odamning ijtimoiy-etnik birlikka mansubligida, ijtimoiy sohadagi munosabatlarida, o'z millatining egallagan mavqeiini yaqqol tasavvur qilganlarida, milliy manfaatdorligida yorqin ifodasini topadi.

Milliy o'z-o'zini anglash - shaxs o'zini haqiqiy mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchisi ekanligini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini manfaatlar, ehtiyojlar umumiylikni tushunib yetishidir.

Milliy o'z-o'zini anglash sub'ektlar ma'naviyatida psixologik fenomen sifatida ifodalanadi, amalga oshadi. Ma'naviyat - murakkab va ko'p ma'noli tushuncha. U insonning, fikrining, e'tiqodlarining ko'p tomonlarini, madaniy meros va zamonaviy ilmiy va adabiy qadriyatlarining tizimini, urf-

odatlarini, marosimlarni, diniy e'tiqodlarni qamrab oladi. O'z navbatida, sanab o'tilgan hodisalarning har biri ko'pgina aniq qadriyatlaridan tashkil topgan. Tabiiyki, ularning hammasi ham o'zining imkoniyatlari, mustaqillik ehtiyojlariga xizmat qilishi, jamiyatga va odamlarga ta'siri bo'yicha teng qiymatli emas. Psixologiya fani oldida bu murakkab fenomen ichidan shunday psixologik hodisalarni ajratib olish zarurligi aniq belgilab olinganki, ularni xarakteri va hisobga olish milliy o'z-o'zini anglashni shakllanishiga yordam beradi.

Oxirgi vaqtlarda milliy o'z-o'zini anglashga bo'lgan qiziqish nafaqat ijtimoiy - siyosiy, falsafiy, tarixiy, balki psixologik yondashuvlarda ham kuzatilmoqda.

A. B. Bagdasarova (1996) milliy o'z-o'zini anglashni butun olam nigohi nazarida tahlil qiladi: "Milliy o'z-o'zini anglash o'zida ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ta'limiy, estetik, falsafiy, diniy qarashlarni namoyon qiladi va diniy rivojlanishni turli millatlarda aks ettiradi. Shu yo'sinda milliy tafakkur ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy millatlarning hayotiy jarayonlari bilan birga milliy ta'limni aks ettiradi" [3].

Shunday qilib, o'zlikni anglash ong osti darajasida hosil bo'lib, tafakkur darajasida namoyon bo'ladi; o'zining milliy xususiyatlarini saqlab qolishga intilayotgan individlar qarashlarini aks ettiradi.

O'z-o'zini anglash quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) Ko'niktirish 2) Himoyalash 3) Bilish 4) O'zini nazorat qilish

Ko'niktirish funksiyasi - hayotiy faoliyat davomida individning milliy xususiyatlariga o'rganishi. Bu jarayonda asosiy rolni o'zida qadriyatlarining xususiyat tizimini saqlaydigan til o'ynaydi. Shu bilan birga bu yerda tarixiy voqealarga, qahramonlar, milliy madaniyat namoyondalariga tayaniladi. Til o'rganish orqali shaxs milliy madaniyat olamiga kirib boradi. Milliy o'zlikni anglashning yana himoya funksiyasi ham mavjud. U madaniy qadriyatlarni saqlashda namoyon bo'lib, milliy - madaniy qiziqishlarni himoyalash va rivojlantirish, milliy qadriyatlarini ichki yoki tashqi ta'sirlardan asrash kerak bo'lganda chegaralaydi. Milliy tafakkurni himoya funksiyasi nomilliy ta'sir xavfini sezmaydi. U milliy rivojlanish talablariga qaratilgan himoya ob'ekti bo'lib, ijtimoiy va diniy hayotdagi milliy qadriyatlar hisoblanadi. Himoya funksiyasi kelayotgan qator milliy qadriyatlarga tegishli bo'lganda yuzaga keladi [5].

Milliy o'zlikni anglash an'analarini avlodlardan avlodga uzatishda ishtirok etadi, bundan tashqari tarixiy, diniy va madaniy materiallarni saqlashda qatnashadi. Bilish funksiyasi nafaqat avlodlar xotirasini saqlashda, balki hayotning o'zida butunligicha ham ishtirok etadi.

Milliy o'z-o'zini anglash birdaniga yoki oson shakllanib qolmaydi. Bu uzoq muddatda va turli shakllarda amalga oshiriladi. Men o'z kuzatishlarimdan kelib chiqib o'quvchi yoshlar shaxsida milliy o'z-o'zini anglashni shakllantirishda quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tavsiya qilmoqchiman:

- musiqa, tasviriy san'at darslarida xalq his-tuyg'u va kechinmalarini uyg'un bir maromdagi tovushlar, kuylar orqali ifodalanishi, milliy sanat jozibadorligi, milliy ruhi, ohangdorligi bilan, milliy folklorini misol qilib keltirish, mavzuga bog'lab sayohatlarga olib chiqish, uchrashuvlar uyushtirish ;

- o'quv binosini milliy uslubda, xalq me'morchilik an'analariga rioya qilgan holda qurilishi, binoni ichki qismi milliy naqsh, ganchkorlik namunasi bilan, yo'laklarda milliy tuyg'u bezaklari hukmronlik qilishi;

- o'quv xonalaridagi, fan ko'rgazmali qurollarida urush, mehnat faxriylari hayoti aks etishi, ko'chirma(sitata)lar aynan o'zbek xalq maqollari, hikmatli so'zlaridan tuzish orqali talabalarda milliy g'urur, faxr tuyg'ularini shakllantirish;

- har bir fan mavzularidan kelib chiqib "Aqliy hujum", "Keys", "Bumerang", "Bahs- munozara", "evristik suhbat" kabi interfaol o'qitish usullaridan foydalanib O'zbekistonning milliy boyliklari, qazilmalari,(paxtasi, qorako'li, oltini) imkoniyatlari salmog'ini ochib berish;

- milliy an'ana, marosim, bayramlar (Navro'z, Til bayrami, Mustaqillik bayrami, Hosil bayrami, Sumalak sayli, Hayitlar)ini o'quvchi yoshlarning faol ishtirokida keng miqyosda o'tkazish;

- yurtdoshlarimizning turli sohalarda (sport, san'at, ma'naviyat, iqtisod) erishgan yutuqlaridan o'quvchi yoshlarni doimiy xabardor qilib turish, davra suhbatlari tashkil qilish;

- buyuk vatandoshlarimizning yubiley tantanalarida qatnashish, ularning hayoti va faoliyatlariga bag'ishlab o'quvchi yoshlar o'rtasida intellektual o'yinlar o'tkazish va hokazolar.

Bizga malumki, har bir dars o'z oldiga tarbiyalovchi, ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarni qo'yadi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda doimiy qo'llaniladigan an'anaviy usullar emas balki, zamonaviy pedagogik texnologiya va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'tkazilishi samarali natijalar berayotgani kuzatilmoqda.

Xo'sh, o'z-o'zini anglash o'zi nima? Muayyan ijtimoiy birlik uchun yetakchi faoliyatga ko'proq darajada "jalb qilingan" individual fazilatlariga shaxsning xususan o'ziga xos fazilatlarini sifatida yuzaga chiqadi. Shaxsning tafakkur, xotira, iroda singari persektiv xususiyatlaridan tashqari uning jamoadagi o'rni, jamoaning unga munosabati, bahosi singarilar ko'proq shaxs sifatlarini deb yuritiladi. Shaxs sifatlarida uning tuzilishi, yo'nalishi, faolligi farqlanadi. Tabiiy (anatomik, fiziologik) va ijtimoiy xislatlar ma'lum birlikni tashkil yetadi, bu shaxs tuzilishining birinchi kichik metaindivid tuzilishidir. Ikkinchi metaindivid tuzilishi tana a'zolaridan tashqaridagi "bo'shlikka" bog'liq- "Ekstraindivid" tuzilishi, yana biri "interoidivid" tuzilishidir.

Kishi o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hisoblangan munosabatlar tizimiga kirgan, odamlar bilan o'zaro birgalikda harakat qilgan va munosabatda bo'lgan holda o'zini atrof muhitdan alohida ajratib ko'rsatadi, o'zining jismoniy va psixik holati, harakatlari va jarayonlarining subekti sifatida aks etadi, o'zi uchun (boshqalarga) qarshi turgan va ayni chog'da ular bilan bog'liq bo'lgan "Men" sifatida nomoyon bo'ladi. "Men" siymosi- individning o'zi haqidagi nisbatan barqaror, ozmi-ko'pmi darajada anganilmagan, betakror deb his qilinadigan tasavvurlar tizimidir, individ boshqalar bilan o'zaro birgalikda harakat qilishda ana shunga asoslanadi.

XX va XXI asr psixologiya fanida ushbu masalaning ijtimoiy psixologik tabiatini tushuntirishda ikki xil qarash va yondashuv vujudga kelgan bo'lib, ular o'zaro bir-biridan keskin darajada tafovutlashib turadi. Birinchi yondashuv talqinicha, o'zini o'zi anglash-bu o'z yo'nalishini o'zgartirgan ongning aynan o'zidir. Inson o'zini o'zi anglashning subekti deyilganda, inson o'zligini (...Men...ligini) anglashning imkoniyati va sharti bo'lishi muayyan o'ziga xos sifatidan tashkil topganligi nazarda tutiladi.

#### Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. –T.: "O'zbekiston". 2001, 80-b.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqbol va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir. –T.: "O'zbekiston". 2015.
3. Багдасарова А. Б. Механизм перерастания национального сознания в националистическое. // Этнические проблемы современности. Вып. 4. – Ставрополь: 1996. –С. 79.
4. Djabborov A.M. Yetnik stereotip nima? // Fan va turmush. 1990, 2-son.
5. Сафаев Н.С. Проблема национального самосознания. // Xalq ta'limi. 2003, № 6.

Milliy o'z-o'zini anglash tuyg'usi ijtimoiy psixologiyaning muhim kategoriyasi sifatida har bir millatga taa'lluqli. Uning ma'naviy kamoloti bilan uyg'unlashgan ijtimoiy psixologik hodisadir. Bu kategoriyaning millat, jamiyat hayotidagi o'rni va roli nihoyatda katta. Har qanday millatning taraqqiyoti rivoji, qudrati shu millatni tashkil etuvchi insonlarning, ayniqsa yoshlarni milliy o'z - o'zini anglash faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Milliy o'z - o'zini anglash tuyg'usini shakllantirish juda katta ijtimoiy kuch bo'lgan va jamiyatning muhim ijtimoiy qatlamini tashkil etuvchi yoshlarni boshqarish, tarbiyalash, mehnatga chorlash uchun keng shart - sharoitlar yaratadi. O'quvchi yoshlarning milliy o'z-o'zini anglashi orqali ijtimoiy ustanovkalar shakllanadi va bu milliy manfaatlarini anglash orqali ijobiy xatti-harakatlarga undaydi.

#### РЕЗЮМЕ

Чувство самосознания как важная категория социальной психологии свойственно каждой нации и является психологическим феноменом, тесно связанным с его духовным совершенством. Эта категория играет важную роль в жизни народа и общества. Развитие каждой нации и её могущество тесно связано с людьми, составляющими эту нацию, и особенно с молодёжью. Через национальное само-сознание учащейся молодёжи формируются социальные установки и это призывает к положительным действиям через осознание национального приоритета.

#### PEZIOUME

The feeling of self-consciousness as an important category of social psychology is a specific feature beature of every nation and it is a psychological phenomenon which is connected with its spiritual perfection. It has an important role in the life of the nation and society. Development and power of the nation is connected with the people and especially with the youth. Through the national self-consciousness of the youth-students social establishments are formed and it brings to positive actions and the deliberation of national priority.

#### SUMMARY

### САЛАМАТ БАЛА ТӘРБИЯСЫНДА ЕРТЕКЛЕРДИҢ ӘХМІЙЕТИ

Г.Бекимбетова - үлкен оқытыўшы

КРХБХҚТХОҚАИ

**Таянч сўзлар:** халқ педагогикаси, сўз эркинлиги, эртақ, фикрлаш, билим, кўникама, ақлий ривожланиш, эътиборлилик.

**Ключевые слова:** народная педагогика, свобода слова, сказки, мысль, знания, умения, умственное развитие, внимание, доброта, зло, милосердие.

**Key words:** folk pedagogy, freedom of speech, fairy tales, thought, knowledge, skills, intellectual development, attention, good, evil, mercy.

Өзбекстан Республикасының Биринши Президенти И.А.Каримов айтқандай: «Әдепли, билимли хәм ақыллы, мийнет сүйгиш, ийман-инсаплы перзент тек ғана ата-ананың емес, ал пүткил жәмийеттиң ең үлкен байлығы болып табылады [1:56]. Халқымыздың тарийхы, мәдениеты, аўызеки әдебияты, миллий дәстүрлери, үрп-әдетлери, байрам-сейиллери, ойынлары, жарыслары, көркем-өнери хәм басқа тәлим-тәрбия системасында кудиретли тәрбия куралы сыпатында қолланылған [2:10]. Мектепке шекемги дәуирде балалардың билиў искерлигиниң қәлиплесиўинде бир канша алға илгерилеўшилиқ ямаса балада ата-анаға ярым ғәрезилиқ, жеке қәдир-қымбат туйғысы раўажлана баслайды. Айырым, балаларда уят хәм ғүманлануў сезимлери менен бирге эти-

Individning ushbu ma'nodagi subektiligi o'zini o'zi anglashga nisbatan ichki ehtiyoj, motiv, talab, intilish sifatida mavjud bo'ladi.

O'quvchi yoshlarning milliy o'z-o'zini anglashi orqali ijtimoiy ustanovkalar shakllanadi va bu milliy manfaatlarini anglash orqali ijobiy hatti-harakatlarga undaydi. Bu esa Respublikamizdagi manaviy-mafkuraviy muhitni yaxshilanishiga, milliy munosabatlarni mustahkamlanishiga olib keladi.

Ayniqsa hozirgidek tahlilkali, murakkab va qarama-qarshiliklarga to'la davrda yoshlarimizni o'z Vatanga, oilasiga, hatto ota-onasiga qarshi qurol ko'tarishiga sabab bo'layotgan omillarni o'rganar ekanmiz, barchasini tub zamirida milliy tarixini bilmaslik, milliy o'zligini anglamaslik yotganiga amin bo'lamiz. Statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyo miqyosida bunday guruhlar oqimiga tushib qolayotgan yoshlar 15-20 yosh oralig'ida ekanligi ta'kidlanmoqda.

Xo'sh, bu yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda, ma'naviy tadbirlar o'tkazishda qayerda xatolikka yo'l qo'yilmoqda? Inson psixologiyasi shundayki, unda ma'lum bir narsa haqida obyektiv, haqqoniy bilimlar bo'lmasa, olingan axborotlarni to'g'ri deya qabul qiladi. Haqiqiy, asoslangan, ilmiy bilimlarni avvalo inson o'zi qiziqib o'rganishi, tafakkurini ishga solib haqiqat va yolg'onni ajrata olishi, ta'lim-tarbiyaga ma'sul shaxslar va otanalar kimlarni avlodi ekanligimiz, ajdodlarimiz buyuk siymosi bilan tanishtirish, bugungi yorug', baxtli kunlar qancha-qancha begunoh insonlarning azobli, mashaqqatli mehnatlari evaziga kelganini aytib berishlari zarur.

Xulosa o'mida Prezidentimizning quyidagi gaplarini keltirib o'tmoqchiman: "Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarini puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama sog'lom avlodni engib bo'ladimi? Yillar, asrlar sinovida toblangan, ko'pni ko'rgan, bugun erkinlik havosidan nafas olib yashayotgan, o'z qadr-qimmatini, insoniy sha'nini, ne-ne ulug' zotlarning vorislari ekanini, o'zligini anglagan, milliy g'urur va iftixorini tiklagan, xalqaro maydonda o'ziga munosib o'rin egallab borayotgan, o'z kuchi va ertangi kuniga ishongan, o'z yurti, o'z farzandlarining kelajagi farovon bo'lishiga intilayotgan bizning xalqimizni hech qanday kuch to'xtatolmaydi" [2].